Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash
va malakasini oshirish instituti
direktorining birinchi o‘rinbosari
R.Xursanov

2026-yil 18-noyabr

“Patent vakillarini tayyorlash” maxsus tayyorlash o‘quv kursi bo‘yicha yakuniy nazorat imtihonini o‘tkazish bo‘yicha METODIK MATERIALLAR

Metodik materiallar 2026-yil 21-oktabrda tasdiqlangan o‘quv dasturiga asoslanib tayyorlangan

“Patent vakillarini tayyorlash” maxsus tayyorlash o‘quv kursidan suhbat shaklida yakuniy nazorat imtihonini o‘tkazish bo‘yicha
METODIK KO‘RSATMALAR

“Patent vakillarini tayyorlash” maxsus tayyorlash o‘quv kursi *(keyingi o‘rinlarda – o‘quv kursi)* bo‘yicha tayyorgarlikdan o‘tgan tinglovchilarga quyidagi talablar qo‘yiladi:

intellektual mulk obyektlariga huquqiy muhofaza olish va uni amalga oshirish masalalari bo‘yicha maslahatlar, og‘zaki va yozma huquqiy xulosalar bera olish;

ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, tovar belgisi va boshqa intellektual mulk obyektlariga talabnomalarni tayyorlash, rasmiylashtirish va vakolatli organga topshira olish;

patent izlanishlarini o‘tkazish, intellektual mulk obyektlarining yangiligi, patentga layoqatliligi va ustuvorligini aniqlay olish;

ekspertiza so‘rovlariga asoslantirilgan javoblar tayyorlash, protsessual muddatlar va patent bojlari hisobini yurita olish;

Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk markazi, Apellyatsiya kengashi, sudlar va boshqa organlarda ishonch bildiruvchi shaxs manfaatlarini ifodalash;

mutlaq huquqni berish, litsenziya va buyurtma shartnomalari loyihalarini tayyorlash hamda ularni huquqiy ekspertizadan o‘tkaza olish;

intellektual mulk huquqlari buzilishi holatlarini aniqlash, dalillarni to‘plash, zarar miqdorini asoslash va himoya usulini to‘g‘ri tanlay olish;

PCT, Madrid va Gaaga tizimlari orqali xalqaro huquqiy muhofaza olish tartibini bilish va amaliyotda qo‘llay olish;

elektron patent ma’lumotlar bazalari, elektron talabnomalar va boshqa axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalana olish;

patent vakilining kasb etikasi, mahfiylik va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish qoidalarini bilish.

MAVZULAR BO‘YICHA YAKUNIY NAZORAT

Yakuniy nazorat imtihoni patent vakilligi faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari, intellektual mulk huquqining nazariy va amaliy asoslari, patent huquqi va sanoat mulki obyektlarini huquqiy muhofaza qilish, individuallashtirish vositalarini muhofaza qilish va intellektual mulk huquqlarini himoya qilish hamda intellektual mulk obyektlarini xalqaro-huquqiy muhofaza qilishga oid nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar darajasiga qarab baholash asosida amalga oshiriladi. Bunda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 7-oktabrdagi 542-son qarori bilan tasdiqlangan Patent vakilligi to‘g‘risidagi nizom talablari inobatga olinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 19-martdagi 171-son qarori bilan tasdiqlangan “Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida mutaxassislarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish tartibi to‘g‘risida nizomi”ga asosan o‘quv kursi o‘quv dasturiga muvofiq

belgilangan mavzular (modullar) bo‘yicha yakuniy nazorat imtihonini topshirish bilan yakunlanadi.

Yakuniy nazorat imtihonini tashkil etish va o‘tkazish uchun Institut direktorining buyrug‘i bilan komissiya tashkil etiladi.

Yakuniy nazorat imtihoni natijalari komissiya a’zolari tomonidan imzolanadigan qaydnoma varaqalari bilan rasmiylashtiriladi.

Yakuniy nazorat tinglovchilar o‘quv kursiga taalluqli barcha materiallarni o‘rgangandan so‘ng o‘tkaziladi.

Yakuniy nazorat imtihoni jarayonida tinglovchilar bilimini baholash usullari tinglovchining bilim darajasi – tanqidiy va tahliliy fikrlash, og‘zaki yoki yozma shaklda o‘z fikrlarini izchil va konstruktiv bayon qilish ko‘nikmalarini aniqlashdan iboratdir.

YAKUNIY NAZORAT IMTIHONINI O‘TKAZISH TARTIBI

Yakuniy imtihon o‘quv dasturiga asosan o‘tilgan mavzular bo‘yicha 2 bosqichni (nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni tekshirish) o‘z ichiga oladi:

Nazariy bilimlar – og‘zaki yoki yozma shaklda imtihon olish yo‘li bilan;

Amaliy ko‘nikmalar – nizoli masalalarni mediatsiya jarayonlari imitatsiyasi natijalari bo‘yicha. Yakuniy imtihonni tashkil etish va o‘tkazish uchun Institut direktorining burug‘i bilan komissiya tashkil etiladi. Yakuniy imtihon natijalari komissiya a’zolari tomonidan imzolanadigan qaydnoma varaqalari bilan rasmiylashtiriladi. Yakuniy imtihon tinglovchilar kursga taalluqli barcha materiallarni o‘rgangandan so‘ng o‘tkaziladi.

Yakuniy imtihon jarayonida tinglovchilar bilimini baholash usullari malaka oshiruvchi xodimning bilim darajasi – tanqidiy va tahliliy fikrlash, og‘zaki yoki yozma shaklda o‘z fikrlarini izchil va konstruktiv bayon qilish ko‘nikmalarini aniqlash uchun belgilangan.

Yakuniy imtihon doirasida malaka oshiruvchi xodim:

– tegishli faktlar va muammolarni aniqlash;

– asosiy huquqiy masalalar yuzasidan tanqidiy mushohada yuritish;

– asosiy kasbiy faoliyatiga oid tegishli vaziyatlarini bilish va anglash;

– izchil va konstruktiv ravishda yozma shaklda o‘zlashtirilgan o‘quv materialini, mantiqiy

– xulosalarni bayon qilish qobiliyatini namoyish etishi lozim.

Yakuniy imtihonni o‘tkazish usuli:

Yakuniy imtihon quyidagi 2 (ikki) bosqichda amalga oshiriladi:

1-bosqich: nazariy bilimlarini aniqlash – suhbat shaklida;

2-bosqich: amaliy ko‘nikmalarni aniqlash - nizoli masalalarni (keys) mediatsiya jarayonlari

imitatsiyasi natijalari bo‘yicha.

Yakuniy imtihonda har bir tinglovchiga savol beriladi. Yakuniy imtihonni suhbat shaklidagi qismini tashkil etish maqsadida har bir savol o‘quv kursining nazariy qismiga oid bo‘ladi.

Suhbat paytida komissiya a’zolari tomonidan o‘tilgan mavzular bo‘yicha qo‘shimcha savollar berilishi mumkin.

Yakuniy imtihonning amaliy ko‘nikmalarini aniqlashdan iborat 2-qismini tashkil etish maqsadida mediatsiya jarayonlari bo‘yicha nizoli masala (keys) yuzasidan javob beriladi.

O‘quv kursi bo‘yicha yakuniy imtihonda tinglovchilar bilimini baholash mezonlari ma’lumotlar o‘quv kursi boshlanishida tinglovchilarga e’lon qilinadi.

Tinglovchilar bilimi va o‘zlashtirish darajasi 100 ballik tizimda baholanadi.

Tinglovchilar belgilangan maksimal ballning **56 foizidan** kam bo‘lmagan ball to‘plaganda maxsus o‘quv kurslarini o‘zlashtirgan hisoblanadi

Yakuniy baholash quyidagicha taqsimlanadi:

Qoniqarsiz		**Qoniqarli**		**Yaxshi**		**A’lo**	
Ball		Ball		Ball		Ball	
Min	Max	Min	Max	Min	Max	Min	Max
0	**55**	**56**	**70**	**71**	**85**	**86**	**100**

Tinglovchilar bilimini baholashda hamda mos ravishda fan (kurs)ni o‘zlashtirish reyting ko‘rsatkichini aniqlashda tinglovchining har bir nazorat turi bo‘yicha nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari va kompetensiyalari quyidagi mezonlar asosida aniqlanadi:

a) 86 – 100 foiz olish uchun tinglovchi:

fan (kurs) dasturining barcha bo‘limlari bo‘yicha tizimli, to‘la va chuqur bilimga ega bo‘lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi;

terminologiyadan aniq, o‘z o‘rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to‘g‘ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;

muammoli savollarni aniqlashi, o‘z qarashlarini ilmiy-amaliy tilda asoslab bera olishi;

fan (kurs)ning tayanch tushunchalarini bilishi;

nostandart vaziyatlarda muammolarni mustaqil va ijodiy hal qila olish qobiliyatini ko‘rsata olishi;

amaliy ko‘nikmalarni mustaqil ravishda to‘liq bajara olishi va kompetensiyalarni to‘liq egallashi;

amaliy masalalarni qisqa, asoslangan va ratsional ravishda hal etishi;

fan (kurs) dasturida tavsiya etilgan asosiy va qo‘shimcha adabiyotlarni to‘liq va chuqur o‘zlashtirishi;

o‘rganilayotgan fan (kurs) bo‘yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo‘nalishlar mohiyatini anglash, ularga tanqidiy baho berish;

mashg‘ulotlarda o‘qish davri mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo‘lishi, vazifalarni bajarishda yuqori madaniyat darajasiga ega bo‘lishi lozim.

b) 81 – 85 foiz olish uchun tinglovchi:

fan (kurs) dasturining barcha bo‘limlari bo‘yicha tizimli, to‘la va chuqur bilimga ega bo‘lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi;

terminologiyadan aniq, o‘z o‘rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to‘g‘ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;

o‘z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;

fan (kurs)ning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo‘yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;

standart vaziyatlarda muammolarni o‘quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;

amaliy ko‘nikmalarni mustaqil ravishda to‘liq bajara olishi va kompetensiyalarni to‘liq egallashi;

amaliy mashg‘ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to‘g‘ri qo‘llay olishi;

fan (kurs) dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o‘zlashtirishi;

fan (kurs) bo‘yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo‘nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi;

mashg‘ulotlarda ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo‘lishi, vazifalarni bajarishda juda yaxshi madaniyat darajasiga ega bo‘lishi lozim.

v) 71 – 80 foiz olish uchun tinglovchi:

fan (kurs) dasturining barcha bo‘limlari bo‘yicha tizimli, to‘la va chuqur bilimga ega bo‘lishi, bir oz kamchiliklar bilan bo‘lsa-da, zarur dalillar bilan asoslay olishi;

terminologiyadan aniq, o‘z o‘rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to‘g‘ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;

o‘z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;

fan (kurs)ning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo‘yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;

standart vaziyatlarda muammolarni o‘quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;

kamchiliklar bilan amaliy ko‘nikmalarni mustaqil ravishda bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni egallashi;

amaliy mashg‘ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to‘g‘ri qo‘llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi;

fan (kurs) dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o‘zlashtirishi;

fan (kurs) bo‘yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo‘nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi;

mashg‘ulotlarda ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo‘lishi, vazifalarni bajarishda yaxshi darajaga ega bo‘lishi lozim.

g) 60 – 70 foiz olish uchun tinglovchi:

davlat ta’lim talablari doirasida yetarli bilim hajmiga ega bo‘lishi;

terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to‘g‘ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim xatolarga yo‘l qo‘yishi;

javob berishga yoki ayrim maxsus ko‘nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda, fan (kurs) bo‘yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;

amaliy ko‘nikmalarni mustaqil ammo xatoliklar bilan to‘liq bajara olishi; kompetensiyalarni mustaqil, ammo xatoliklar bilan egallashi;

fan (kurs)ning umumiy tushunchalari bo‘yicha qisman bilimga ega bo‘lishi va unistandart vaziyatlarni hal etishda qo‘llay olishi;

pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;

fan (kurs) bo‘yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo‘nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;

mashg‘ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega bo‘lishi lozim.

d) 56 – 59 foiz olish uchun tinglovchi:

davlat ta’lim talablari doirasida qoniqarli bilim hajmiga ega bo‘lishi;

terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to‘g‘ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim qo‘pol xatolarga yo‘l qo‘yishi;

javob berishga yoki ayrim maxsus ko‘nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda va xatolarga yo‘l qo‘yganda, fan (kurs) bo‘yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;

amaliy ko‘nikmalarni mustaqil emas va xatoliklar bilan to‘liq bajara olishi; kompetensiyalarni mustaqil egallay olmasligi;

fan (kurs)ning umumiy tushunchalari bo‘yicha qisman bilimga ega bo‘lishi va unistandart vaziyatlarni hal etishda qo‘llay olishi;

pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;

fan (kurs) bo‘yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo‘nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;

mashg‘ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega bo‘lishi lozim.

e) 0 – 55 foiz deb baholanadi, agar tinglovchi:

davlat ta’lim talablari doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo‘lsa;

terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy va qo‘pol mantiqiy xatolarga yo‘l qo‘ysa yoki umuman javob bermasa;

mashg‘ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo‘lsa yoki umuman bajarmasa;

amaliy ko‘nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo‘lmasa, o‘z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to‘g‘rilay olmasa.

“Patent vakillarini tayyorlash” maxsus tayyorlash o‘quv kursidan yakuniy nazorat imtihonini o‘tkazish uchun

SAVOLLAR

1. Huquq manbalari tizimi, normativ-huquqiy hujjatlarning yuridik kuchi va intellektual mulk sohasida xalqaro shartnomalar normalarining ustuvorligi. *(Система источников права, юридическая сила нормативно-правовых актов и приоритет норм международных договоров в сфере интеллектуальной собственности.)*
2. Fuqarolik huquqida vakillik instituti: vujudga kelish asoslari, ishonchnomaning shakli, muddati va bekor bo‘lishi. *(Институт представительства в гражданском праве: основания возникновения, форма, срок и прекращение доверенности.)*
3. Intellektual mulk sohasidagi davlat boshqaruvi: Adliya vazirligi va Intellektual mulk markazining vakolatlari. *(Государственное управление в сфере интеллектуальной собственности: полномочия Министерства юстиции и Центра интеллектуальной собственности.)*
4. Patent vakilining huquqiy maqomi, ixtisosliklari, huquq va majburiyatlari. *(Правовой статус, специализации, права и обязанности патентного поверенного.)*
5. Patent vakillarini attestatsiyadan o‘tkazish, davlat reyestrini yuritish va guvohnomaning amal qilishini tugatish asoslari. *(Аттестация патентных поверенных, ведение государственного реестра и основания прекращения действия свидетельства.)*
6. Patent vakilining kasb etikasi, mahfiylik talablari va professional javobgarligi. *(Профессиональная этика, требования конфиденциальности и профессиональная ответственность патентного поверенного.)*
7. Patent vakili va ishonch bildiruvchi shaxs o‘rtasidagi shartnomaning muhim shartlari hamda manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish. *(Существенные условия договора между патентным поверенным и доверителем и предотвращение конфликта интересов.)*
8. Intellektual mulk sohasidagi ma’muriy tartib-taomillar va vakolatli organ qarorlari ustidan shikoyat qilish tartibi. *(Административные процедуры в сфере интеллектуальной собственности и порядок обжалования решений уполномоченного органа.)*
9. Protsessual muddatlarni hisoblash, o‘tkazib yuborilgan muddatlarni tiklash va patent bojlarining huquqiy tabiati. *(Исчисление процессуальных сроков, восстановление пропущенных сроков и правовая природа патентных пошлин.)*
10. Patent vakilining huquqiy xulosasi: tuzilishi, mazmuni va kasbiy-huquqiy tavakkalchiliklarni baholash. *(Правовое заключение патентного поверенного: структура, содержание и оценка профессионально-правовых рисков.)*
11. Intellektual mulk huquqi tushunchasi, tizimi, institutlari va fuqarolik huquqi tizimidagi o‘rni. *(Понятие, система, институты права интеллектуальной собственности и его место в системе гражданского права.)*

12. Intellektual mulk obyektlariga nisbatan shaxsiy nomulkiy, mulkiy va mutlaq huquqlar: mazmuni va nisbati. *(Личные неимущественные, имущественные и исключительные права на объекты интеллектуальной собственности: содержание и соотношение.)*

13. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarning subyektlari, obyektlari va amal qilish muddatlari. *(Субъекты, объекты и сроки действия авторского права и смежных прав.)*

14. EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalarini huquqiy muhofaza qilish va ro'yxatdan o'tkazishning ahamiyati. *(Правовая охрана программ для ЭВМ и баз данных и значение их регистрации.)*

15. Mutlaq huquqni berish shartnomasi va litsenziya shartnomasi: farqi, turlari va muhim shartlari. *(Договор об уступке исключительного права и лицензионный договор: различие, виды и существенные условия.)*

16. Intellektual mulk obyektlarini baholash, tijoratlashtirish va ustav kapitaliga kiritishning huquqiy asoslari. *(Правовые основы оценки, коммерциализации и внесения объектов интеллектуальной собственности в уставный капитал.)*

17. Xizmat vazifasini bajarish va buyurtma asosida yaratilgan obyektlarga bo'lgan huquqlar; muallifga haq to'lash. *(Права на служебные объекты и объекты, созданные по заказу; выплата вознаграждения автору.)*

18. Davlat mablag'lari hisobidan yaratilgan intellektual mulk obyektlarining huquq egasini aniqlash va ularni tijoratlashtirish. *(Определение правообладателя и коммерциализация объектов интеллектуальной собственности, созданных за счёт государственных средств.)*

19. Intellektual mulk obyektlarini nomoddiy aktiv sifatida e'tirof etish va litsenziya to'lovlarini (royalti) soliqqa tortish. *(Признание объектов интеллектуальной собственности нематериальными активами и налогообложение лицензионных платежей (роялти).)*

20. Mualliflik huquqida mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqarish tashkilotlarining huquqiy maqomi va haq taqsimlash mexanizmi. *(Правовой статус организаций по коллективному управлению имущественными правами и механизм распределения вознаграждения.)*

21. Patent huquqi tushunchasi, prinsiplari, subyektlari va obyektlari. *(Понятие, принципы, субъекты и объекты патентного права.)*

22. Ixtironing patentga layoqatlilik shartlari: yangilik, ixtiro darajasi va sanoatda qo'llash mumkinligi. *(Условия патентоспособности изобретения: новизна, изобретательский уровень и промышленная применимость.)*

23. Ixtiro sifatida huquqiy muhofaza qilinmaydigan obyektlar va ularni muhofaza qilishning muqobil usullari. *(Объекты, не охраняемые в качестве изобретений, и альтернативные способы их охраны.)*

24. Foydali modelning huquqiy maqomi, patentga layoqatlilik mezonlari va ixtirodan farqi. *(Правовой статус полезной модели, критерии патентоспособности и отличие от изобретения.)*

25. Sanoat namunasining huquqiy maqomi va patentga layoqatlilik shartlari. *(Правовой статус промышленного образца и условия его патентоспособности.)*

26. Patent izlanishlari: maqsadi, manbalari va texnikaning ma’lum darajasini aniqlash. *(Патентные исследования: цели, источники и определение уровня техники.)*

27. Ixtiro va foydali modelga talabnoma tarkibi, tavsif va chizmalarga qo‘yiladigan talablar. *(Состав заявки на изобретение и полезную модель, требования к описанию и чертежам.)*

28. Ixtiro formulasi: mustaqil va bog‘liq bandlar, muhim belgilar va patent muhofazasi hajmi. *(Формула изобретения: независимые и зависимые пункты, существенные признаки и объём патентной охраны.)*

29. Sanoat namunasiga talabnoma tayyorlash, tasvirlar va tavsifga qo‘yiladigan talablar. *(Подготовка заявки на промышленный образец, требования к изображениям и описанию.)*

30. Talabnomani rasmiy va mohiyati bo‘yicha ekspertizadan o‘tkazish, patent berish yoki berishni rad etish tartibi. *(Формальная экспертиза и экспертиза по существу заявки, порядок выдачи патента или отказа в выдаче.)*

31. Ekspertiza so‘rovlariga javob berish va talabnoma materiallariga o‘zgartirish kiritishning huquqiy chegaralari. *(Ответы на запросы экспертизы и правовые пределы внесения изменений в материалы заявки.)*

32. Patentning amal qilish muddati, uni saqlab turish, muddatidan ilgari tugatish va tiklash. *(Срок действия патента, его поддержание, досрочное прекращение и восстановление.)*

33. Patentni haqiqiy emas deb topish asoslari, tartibi va huquqiy oqibatlari. *(Основания, порядок и правовые последствия признания патента недействительным.)*

34. Seleksiya yutuqlari va integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilishning o‘ziga xos xususiyatlari. *(Особенности правовой охраны селекционных достижений и топологий интегральных микросхем.)*

35. Ishlab chiqarish sirlari (nou-xau) va tijorat sirining huquqiy rejimi. *(Правовой режим секретов производства (ноу-хау) и коммерческой тайны.)*

36. Patent ustuvorligi: birinchi talabnoma, konvensiyaviy va ko‘rgazmaviy ustuvorlik. *(Патентный приоритет: приоритет по первой заявке, конвенционный и выставочный приоритет.)*

37. Patent egasining mutlaq huquqlarini cheklash, oldingi foydalanish huquqi va huquqlarning tugashi prinsipi. *(Ограничения исключительных прав патентообладателя, право преждепользования и принцип исчерпания прав.)*

38. Majburiy litsenziya instituti: qo‘llanilish shartlari va tartibi. *(Институт принудительной лицензии: условия и порядок применения.)*

39. Patent huquqi obyektlarini yaratishga buyurtma berish shartnomalari va natijalarga bo‘lgan huquqlarni belgilash. *(Договоры заказа на создание объектов патентного права и определение прав на результаты.)*

40. Patent egasining buzilgan huquqlarini himoya qilishda haqiqiy zarar, boy berilgan foyda va tovonni aniqlash. *(Определение реального ущерба, упущенной выгоды и компенсации при защите нарушенных прав патентообладателя.)*

41. Tovar belgisi va xizmat koʻrsatish belgisining turlari, farqlash xususiyati va roʻyxatdan oʻtkazishni rad etish asoslari. *(Виды товарных знаков и знаков обслуживания, различительная способность и основания отказа в регистрации.)*

42. Tovar kelib chiqqan joy nomlari va geografik koʻrsatkichlar: tushunchasi, farqi va huquqiy muhofazasi. *(Наименования мест происхождения товаров и географические указания: понятие, различие и правовая охрана.)*

43. Tovar belgisiga talabnoma, Nitsa tasnifi asosida tovar va xizmatlar roʻyxatini shakllantirish va ekspertiza. *(Заявка на товарный знак, формирование перечня товаров и услуг по Ниццкой классификации и экспертиза.)*

44. Tovar belgisiga mutlaq huquq, guvohnomaning amal qilish muddati, uni uzaytirish va huquqiy muhofazani tugatish. *(Исключительное право на товарный знак, срок действия свидетельства, его продление и прекращение правовой охраны.)*

45. Belgilarning adashtirish darajasidagi oʻxshashligi va tovarlarning bir turdaligini huquqiy baholash. *(Правовая оценка сходства обозначений до степени смешения и однородности товаров.)*

46. Firma nomiga boʻlgan huquq va uning tovar belgisi bilan toʻqnashuvi. *(Право на фирменное наименование и его коллизия с товарным знаком.)*

47. Nohalol raqobat sharoitida intellektual mulk huquqlarini himoya qilish. *(Защита прав интеллектуальной собственности в условиях недобросовестной конкуренции.)*

48. Intellektual mulk huquqlarini buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy, ma’muriy va jinoiy javobgarlik. *(Гражданско-правовая, административная и уголовная ответственность за нарушение прав интеллектуальной собственности.)*

49. Intellektual mulkka oid nizolarni Apellyatsiya kengashi, fuqarolik va iqtisodiy sudlarda koʻrib chiqish; mediatsiya. *(Рассмотрение споров об интеллектуальной собственности в Апелляционном совете, гражданских и экономических судах; медиация.)*

50. Raqamli muhitda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qilish, elektron dalillarni qayd etish. *(Защита авторского права и смежных прав в цифровой среде, фиксация электронных доказательств.)*

51. Intellektual mulkka oid sud nizolarida isbotlash predmeti, sud ekspertizasi va da’vo arizasini tayyorlash. *(Предмет доказывания, судебная экспертиза и подготовка искового заявления в спорах об интеллектуальной собственности.)*

52. Sanoat mulkini muhofaza qilish boʻyicha Parij konvensiyasi, TRIPS bitimi va BIMT faoliyatining ahamiyati. *(Значение Парижской конвенции по охране промышленной собственности, Соглашения ТРИПС и деятельности ВОИС.)*

53. PCT tizimi: xalqaro talabnoma, xalqaro qidiruv, milliy bosqichga o‘tish va e-PCT. *(Система PCT: международная заявка, международный поиск, переход на национальную фазу и e-PCT.)*

54. Madrid protokoli asosida tovar belgisini xalqaro ro‘yxatdan o‘tkazish va bazaviy ro‘yxatga bog‘liqlik. *(Международная регистрация товарного знака по Мадридскому протоколу и зависимость от базовой регистрации.)*

55. Sanoat namunalarini xalqaro muhofaza qilish: Gaaga tizimi va Lokarno tasnifi. *(Международная охрана промышленных образцов: Гаагская система и Локарнская классификация.)*

56. Yevropa va Yevroosiyo patent tizimlari: xorijda patentlash yo‘lini tanlash mezonlari. *(Европейская и Евразийская патентные системы: критерии выбора пути патентования за рубежом.)*

57. Intellektual mulkka oid transchegaraviy nizolar: yurisdiksiyani aniqlash va hal etish mexanizmlari. *(Трансграничные споры об интеллектуальной собственности: определение юрисдикции и механизмы разрешения.)*

“Patent vakillarini tayyorlash” maxsus tayyorlash o‘quv kursidan yakuniy nazorat imtihonini o‘tkazish uchun KAZUSLAR

1-KAZUS

Vaziyat: Ixtirochi B. patent vakili V. bilan og‘zaki kelishuv asosida ishlay boshladi. Talabnoma topshirilgandan so‘ng Intellektual mulk markazi vakilning vakolatini tasdiqlovchi hujjatni talab qildi.

Savollar: 1) Patent vakilining vakolati qanday hujjat bilan tasdiqlanadi? 2) Ishonchnomada qanday vakolatlar alohida ko‘rsatilishi lozim?

2-KAZUS

Vaziyat: Patent vakili G. Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 7-oktabrdagi 542-son qarorida belgilangan muddatda guvohnomasini qayta rasmiylashtirmadi, ammo talabnomalar bo‘yicha vakillikni davom ettirmoqda.

Savollar: 1) Vakilning harakatlariga huquqiy baho bering. 2) Bu holat ishonch bildiruvchilar uchun qanday oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin?

3-KAZUS

Vaziyat: Faqat tovar belgilari ixtisosligiga ega patent vakili kimyoviy birikmaga ixtiro talabnomasi bo‘yicha vakillikni o‘z zimmasiga oldi.

Savollar: 1) Ixtisoslikdan tashqari vakillik qilish mumkinmi? 2) Ishonch bildiruvchi manfaatlari uchun qanday tavakkalchiliklar mavjud?

4-KAZUS

Vaziyat: Patent vakili «Alfa» MCHJ nomidan «ALFA» tovar belgisini ro‘yxatdan o‘tkazdi. Olti oydan so‘ng «Beta» AJ shu vakildan mazkur belgi ro‘yxatdan o‘tkazilishiga qarshi Apellyatsiya kengashiga e’tiroz tayyorlashni so‘radi.

Savollar: 1) Manfaatlar to‘qnashuvi mavjudmi? 2) Patent vakili qanday qaror qabul qilishi kerak?

5-KAZUS

Vaziyat: Patent vakili mijoz ixtirosining tavsifini talabnoma topshirilishidan oldin ilmiy konferensiyada amaliy misol sifatida namoyish qildi.

Savollar: 1) Vakilning harakatlariga kasb etikasi va mahfiylik nuqtai nazaridan baho bering. 2) Bu holat ixtiro yangiligiga qanday ta’sir qilishi mumkin?

6-KAZUS

Vaziyat: Patent vakili va ishonch bildiruvchi o‘rtasidagi shartnomada «patent olinishi kafolatlanadi» degan shart va haqning asosiy qismi faqat patent berilgandan keyin to‘lanishi belgilangan.

Savollar: 1) Ushbu shartlar qonuniy va etik jihatdan maqbulmi? 2) Shartnomada qanday muhim shartlar bo‘lishi lozim?

7-KAZUS

Vaziyat: Patent vakilining e’tiborsizligi tufayli ekspertiza so‘roviga javob berish muddati o‘tkazib yuborildi va talabnoma chaqirib olingan deb topildi.

Savollar: 1) Muddatni tiklashning qanday imkoniyatlari mavjud? 2) Vakilning ishonch bildiruvchi oldidagi javobgarligi qanday?

8-KAZUS

Vaziyat: Patentni amalda saqlab turish uchun yillik boj belgilangan muddatda to‘lanmadi. Patent egasi bu haqda to‘rt oydan keyin bilib qoldi.

Savollar: 1) Patentning amal qilishi masalasi qanday hal etiladi? 2) Patentni tiklash tartibi va uning uchinchi shaxslar uchun oqibatlari qanday?

9-KAZUS

Vaziyat: Intellektual mulk markazi tovar belgisi talabnomasini rad etdi. Qarorda faqat «belgi ro‘yxatdan o‘tkazishga yaroqsiz» deb ko‘rsatilgan, motivlar va qarama-qarshi belgilar keltirilmagan.

Savollar: 1) Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risidagi Qonunning qaysi prinsiplari buzilgan bo‘lishi mumkin? 2) Patent vakili qanday shikoyat yo‘lini tanlashi lozim?

10-KAZUS

Vaziyat: Korxona yangi qurilmani ishlab chiqarishni boshlashdan oldin patent vakilidan amaldagi patentlarni buzmaslik («patent sofligi») bo‘yicha xulosa so‘radi.

Savollar: 1) Bunday xulosa qanday tuzilishi va mazmunga ega bo‘lishi kerak? 2) Vakil qanday tavakkalchiliklarni ko‘rsatishi lozim?

11-KAZUS

Vaziyat: Ssenarist telekanalga ko‘rsatuv g‘oyasini og‘zaki taklif qildi. Bir yildan so‘ng telekanal shunga o‘xshash konsepsiya asosida ko‘rsatuv chiqardi, ammo matn va ssenariy boshqacha.

Savollar: 1) G‘oya mualliflik huquqi obyekti hisoblanadimi? 2) Mualliflik huquqi buzilganini isbotlash uchun nimalar talab etiladi?

12-KAZUS

Vaziyat: Dasturchi mehnat shartnomasi asosida xizmat vazifasi doirasida EHM dasturini yaratdi. Ishdan ketgach, u dasturni o‘z nomidan ro‘yxatdan o‘tkazdi va raqib korxonaga litsenziya berdi.

Savollar: 1) Dasturga bo‘lgan mulkiy huquqlar kimga tegishli? 2) Dasturni ro‘yxatdan o‘tkazishning huquqiy ahamiyati nimada?

13-KAZUS

Vaziyat: Mutlaq (eksklyuziv) litsenziya shartnomasini tuzgan litsenziar shu hududda o‘zi ham tovar ishlab chiqarishni boshladi va boshqa shaxsga oddiy litsenziya berdi.

Savollar: 1) Mutlaq va oddiy litsenziyaning farqi nimada? 2) Litsenziat o‘z huquqlarini qanday himoya qilishi mumkin?

14-KAZUS

Vaziyat: Ta’sischi ixtiro patentiga bo‘lgan huquqni MCHJ ustav kapitaliga 5 mlrd so‘m qiymatda kiritmoqchi. Mustaqil baholash o‘tkazilmagan, boshqa ishtirokchilar bahodan norozi.

Savollar: 1) Intellektual mulk obyektini ustav kapitaliga kiritish tartibi qanday? 2) Baholashning huquqiy ahamiyati nimada?

15-KAZUS

Vaziyat: Xodim xizmat vazifasini bajarish jarayonida ixtiro yaratdi va bu haqda ish beruvchini yozma xabardor qildi. Ish beruvchi uzoq vaqt talabnoma bermadi va ixtironi sir saqlash haqida ham xabar bermadi.

